


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 74 115,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,9 % ga yetdi.

2023- yilda Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	61 627,7	74 115,3	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	60 053,6	72 726,1	105,6
mahsulotlarga sof soliqlar	1 574,1	1 389,2	107,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	60 053,6	72 726,1	105,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 643,8	28 786,2	104,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	13 727,3	15 419,8	106,6
sanoat	10 013,2	11 184,8	105,8
qurilish	3 714,1	4 235,0	108,9
xizmatlar	22 682,5	28 520,1	106,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 133,9	5 188,3	112,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 893,0	4 907,8	112,1
boshqa xizmat tarmoqlari	14 655,6	18 424,0	103,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 17 801,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,4 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,4	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,6	1,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,4	39,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,9	21,2
sanoat	16,7	15,4
qurilish	6,2	5,8
xizmatlar	37,7	39,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,9	7,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,5	6,7
boshqa xizmat tarmoqlari	24,3	25,4



2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 39,6 % ni, sanoat tarmog‘i 15,4 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 39,2 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil

2,6 %



39,4 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

16,7 %

Sanoat

6,2 %

Qurilish

37,7 %

Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

39,6 %

Sanoat

15,4 %

Qurilish

5,8 %

Xizmatlar

39,2 %



1,9 %


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2022- yilda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,9 f.p. (2022- yilda – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022- yilda – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2022- yilda – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilda –0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 39,6 %), sanoatda – 105,8 % (15,4 %), qurilishda – 108,9 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 106,2 % ni (39,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,1 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,1 % (6,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (25,4 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,6 % va xizmatlar sohasida – 118,4 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 52 925,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 42 258,0 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 72,8 % ni (2022- yilda – 70,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

42 258,0

70,4 %

2023- yil

52 925,9

72,8 %

